

IMOM TERMIZIYNING “SUNAN” NOMLI ASARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.

SPECIAL ASPECTS OF IMAM TERMIZI'S “SUNAN”

Xasanov Husniddin

*Toshkent shahar Imom Buxoriy nomidagi
islom instituti 1-kurs magstiranti Zarqaynar ko‘chasi,
Husniddinxasanov160@gmail.com +998913669616*

Annotasiya: Maqolada imom Termiziyning qisqacha tarjima holi, ta'lim olgan ustoz va safar qilgan yurtlari, yozgan asarlari, asarlari ichidan “Sunan” asarining boshqa sunan asarlardan uslubi, hadislarni keltirish tartibi, ahkomlar boyon qilinish jihatidan o‘ziga xos jihatlari.

Kalit so‘zlar: Hukmiy hadis, sahib, hasan, zaif, mavzu, fuqaholar amali, mustaxrajot, abvob, al-ilal.

Keywords: Judgmental hadith, Sahih, Hasan, Zaif, Topic, Mustahrajam, Abwab, Al-Ilal.

Ключевые слова: Судебный хадис, Сахих, Хасан, заиф, Тема, Мустахраджам, Абваб, Аль-Дэл

KIRISH

Yurtimiz tarixiga nazar solinsa, uning ma’naviy hayotida buyuk allomalarining hayot yo‘llari va yozgan asarlari muhim o‘rin tutganligiga guvoh bo‘linadi. Jahonga mashhur allomalarining Markaziy Osiyodan yetishib chiqqanligi bunga yorqin dalildir. Xususan, ularning asarlari butun dunyo mamlakatlari ilm-fanida dasturi amal bo‘lib xizmat qilayotganligi sababli allomalarining jahon ilm-fan sivilizatsiyasi rivojida tutgan o‘rniga yuqori baho berilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg‘iloniy, Iso Termiziy va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamashshariy va Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy kabi ko‘plab daholar nomi jahon sivilizatsiyasi tarixida oltin harflar bilan bitilgan.

Mintaqamizdan yetishib chiqqan Imom Termiziyning hayoti, ijodiy va ilmiy faoliyati davrida yaratgan asarlari, mo‘tabar asari “Sunani Termiziy” ning boshqa asarlardan o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlarni o‘rganish tariximizning o‘rganilmagan sahifalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Imom, hofiz, muhaddis Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Musa ibn Zohhak al-Bug‘iy as-Sulamiy at-Termiziyyidir. U kishi “Abu Iso” degan kunyasi bilan mashur bo‘lgan¹.

Imom Termiziyy hijriy 209-yili tug‘ilib, 279-yil dushanba kuni, rajab oyining 13-kuni Termizda vafot etgan. Ba’zilar ismlaridan keyin “zarir” deb ham qo‘sib qo‘yadi. “Zarir” degani ko‘zi ojiz degan ma’noni anglatadi. Chunki umrlarining oxirida ko‘zlari ko‘rmay qolgan. Uning yoshlik yillari Termiz shahrida o’tgan, dastlabki ilmni ham shu yerda olgan. Bolaligidan o‘ta ziyrakligi, xotirasining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o‘z tengqurlaridan ajralib turgan. Diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan o‘rgangan, bu boradagi bilimlarini yanada oshirish uchun ko‘pgina Sharq mamlakatlariga borgan. Ko‘p yillar Iroq, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Uzoq davom etgan safarlari chog‘ida qiroat ilmi, bayon, fiqh, tarix, ayniqsa o‘zi yoshlikdan qiziqqan hadis ilmi bo‘yicha o‘sha davrning yirik olimlaridan ta’lim olgan. Mashhur muhaddislardan Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Said, Is’hoq ibn Muso, Mahmud ibn G‘aylon va boshqalar uning ustozlari bo‘lgan.

Imom Termiziyy ko‘plab kitoblar tasnif qilgan bo‘lib, ulardan juda oz qismi saqlanib qolgan.

1. Hadislardagi illatlar haqida, Al-Ilal al-Kabiyr.
2. Al-Ilal as-Sog‘ir.
3. “Payg‘ambar alayhissalomning shakl va sifatlari” (“Ash-Shamoil an-nabaviya” yoki “Ash-Shamoil an-nabiy sallallohu alayhi va sallam”),
4. “Zohidlik kitobi” (“Kitob uz-zuhd”),
5. Kitob at-Tarix
6. “Ismlar va kunyalar kitobi” (“Kitob ul-asmo val-kuno”)
7. “Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola” (“Risola fil-xilof val-jadval”)
8. Al-Jome’ yoki as-Sunan².

Sunani Termiziyning to‘liq nomi “Al-Jome’ al-Muxtasar min as-Sunan an Rosululloh va ma’rifatu as-Sahih val- ma’lul vamaa alayhi al-amal” bu kitob hadis ilmi borasida oltita mo‘tabar kitoblarning biri hisoblanadi. Imom Termiziyy bu kitobida Abu Dovud (rohimahulloh) kabi hukmiy hadislarni jamlagan. Imom Termiziyy kitoblarida zaif hadislardan sahib hadisni bayon qilib o‘tgan. Hadislarni keltirgandan so‘ng uning illatini ham aytib o‘tgan. Hofiz Shamsiddin az-Zahabiy (rohimahulloh) ning yozishlaricha, Imom at-Termiziyy (rohimahulloh) mazkur asarini yozgandan keyin uni Xuroson, Hijoz, Misr va Shom ulamolariga taqdim qilib, ularning fikrlarini olganlar. Dunyoning o‘sha davrdagi mashhur muhaddislari ushbu to‘plamni maqbul

¹ Doktor Tohir Azhariy. Madxal ila Jome’ at-Termiziyy. Quvayt: Maktaba Shuun al-Fanniyyaa, 2007. – B. 17.

² Aby lyo Muhammad ibn lyso ibn Savra. Sunan at-Termiziyy. Muassasa Risola Noshir, 2018.– B. 27

sanab, uni olamga tarqatishga ijozat bergenlar. Shuning uchun ham Abu Iso at-Termiziy (rohimahulloh) ning o‘zлari mazkur kitobi to‘g‘risida iftixor qilib shunday deganlar:

وَمَنْ كَانَ فِي بَيْتِهِ هَذَا الْكِتَابُ يَعْنِي الْجَامِعُ فَكَانَ فِي بَيْتِهِ نَبِيٌّ يَتَكَلَّمُ³

“Kimning uyida ushbu kitob, ya’ni “Jome’ as-Sunan” bo‘lsa, xuddi uning uyida Payg‘ambar gapirayotgandek bo‘ladi!”

Imom Termiziy kitoblarini bayon qilib: “Men kitobimda ba’zi fuqaholar amal qilgan hadislarni keltirdim”- deb aytadilar. Buni kitoblarini nomida ham bayon qilib o‘tganlar.

Hofiz Abu Fazl Muhammad ibn Tohir al-Maqdisiy (rohimahulloh) shunday deb aytadilar: “Imom Abu Ismoil Abdulloh ibn Muhammad al-Ansoriydan eshitdim, u kishining oldilarida Abu Iso at-Termiziy va uning kitoblari zikr qilindi, shunda: Uning kitobi men uchun Buxoriy va Muslimning kitobidan manfaatliroq, chunki Buxoriy va Muslimaning kitobidan faqat yetuk olimlar foyda olishadi, Abu Iso at-Termiziyning kitobidan esa har bir inson manfaat olishi mumkin”- dedilar⁴.

Ibn al-Asir (rohimahulloh) aytadilar: “Termiziyning kitobi kitoblarning eng yaxshisi, foydasi ko‘p, tartibi chiroyli, takror hadislari kam, mazhablarni zikri va dalillanish uslubi, sahih, hasan g‘arib kabi hadis turlarining bayoni, jarh va ta’dil, oxirida esa ilal kitobi jamlangan⁵.

Hadis imomlardan biri Abdurahmon ibn Muhammad Idrisiy: “Termiziy hadis ilmida ishonchli, so‘zi hujjat bo‘lgan imomlardan biridir. Abu Iso at-Termiziy birinchi bo‘lib hadislarni sahih, hasan, zaif kabi toifalarga ajratgan”- deb ta’kidlagan.

Al-Idrisiy ham u zotni “Hadis ilmida ergashiladigan imomlardan biri bo‘lgan”, deb tavsiflaydi⁶.

Shuningdek, ushbu kitob haqida Hofiz Abul-Fazl Al-Maqdisiy quyidagicha bayon etgan: “Hirotda imom Abu Ismoil Al-Ansoriydan eshitdim. U o‘z majlisida, Termiziy va uning kitobi borasida so‘z ketganida bunday dedi: “Mening uchun uning (Termiziyning) kitobi Buxoriy va Muslim kitoblaridan ko‘ra foydaliroq. Chunki, Sahihi Buxoriy va Sahihi Muslimdan faqat mutaxassis olimlargina foydalana oladi. “Sunani Termiziy”dan esa har kim foydalanishi mumkin”⁷.

Shayx Abdulaziz Mansur ushbu asari va uning tarkibiy tuzilishi haqida shunday degan: “Ulug‘ vatandoshimiz – Abu Iso Muhammad At-Termiziyning qo‘lingizdagи “Sunani Termiziy” kitobi “Al-jomi’ as-sahih” (“Ishonarli to‘plam”), “Al-jomi’ al-

³ Shamsiddin Zahabiy. Tazkirotul huffoz. Bayrut: Dor kutub ilmiyya, 1995. – B. 152.

⁴ Jamoliddin Abu Hajjoj Yusuf Mizziy. Tahzib Kamol. Bayrut: muassasa risola, 1979. – B. 173.

⁵ Doktor Tohir Azhariy. Al-madxal ila Jome’ imom at-Termiziy. Quvayt: Maktaba Shuun al-Fanniyya, 2007. – B. 46

⁶ Shihobuddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniy. Tahzib at-tahzib. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. III. – B. 668.

⁷ Shihobuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon az-Zahabiy. Siyar a’lom an-nubalo. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. XIII. – B. 277

kabir” (“*Katta to ‘plam*”) yoki (“*Sahihi Termiziy*”) nomlari bilan ham mashhur. Ammo hazrati Imom At-Termiziy hadis ilmida “*Sunani Termiziy*” yo‘nalishiga asos solgan muhaddislardan bo‘lgani uchun bu kitob, asosan, “*Sunani Termiziy*” nomi bilan shuhrat qozongan. Ma’lumdirki, Yer yuzi musulmonlarining asosiy ko‘philigi hazrati Imomi A’zam mazhablariga rioya qiladilar. “*Sunani Termiziy*” kitobida esa xuddi ana shu mazhab jihatlari e’tiborga olingan. Hanafiy mazhabining fikr-qarashlarini Imom At-Termiziy “*Kufa ahli*”ning fikr-qarashlari tarzida bayon qilganlar”⁸.

Imom Termiziy kuchli xotirasi bilan o‘z davrining olimlaridan ajralib turgan. O‘tkir zehni va quvvai-hofizasi bilan ustozni Imom Buxoriydan qolishmagan. Hifzda (yodlashda) u haqida masallar keltirilgan. Imom Termiziy hadis ilmida iqtido qilinadigan buyuk olimlardan biridir.

Imom Buxoriy ham shogirdi Abu Iso Termiziya yuqori baho berib: “*Sen mendan foydalanganingdan ko‘ra men sendan ko‘proq foydalandim*”⁹, deb ta’kidlagan. Imom Termiziya bunday yuksak baho berishi uning qanchalik darajada ilmga ega ekanini ko‘rsatadi.

Imom Termiziy ustozidan faqat hadis ilmidan saboq olmagan, balki fiqhni ham o‘zlashtirgan. Bu haqda Shamsiddin Zahabiy (1274–1348) “*Tazkirat huffoz*” asarida: “*Hadisda Buxoriydan fiqh o‘rgangan*”¹⁰, degan.

Shuni alohida qayd etish joizki, Imom Termiziy birinchi bo‘lib “*Sunan*” asari orqali hadis ilmiga “*hasan*” iborasini kiritgan.

Imom At-Termiziy o‘z asarida “*Kitob*” lafzini ishlatmagan balki, “*Abvob*” lafzini ishlatgan. Sunani Termiziy”, “*Kitabul ilal*”dagi hadislarni hisobga olmaganda 3956 ta hadisni tashkil qiladi. “*Sunani Termiziy*” tarkibiy jihatdan boblarga bo‘lingan bo‘lib, boblar sarlavha tarzida bo‘lingan. Bobga doir hadislar bo‘lim mazmunini to‘la-to‘kis ifodalagan. Bu bobga doir masalada muallif bir qancha hadis va undan keyin roviylar nomlarini keltirgan, so‘ng bu masala yuzasidan boshqa ulamo va faqihlarning fiqh masalalariga oid fikr va farqlarini tartib bilan yozgan. Rivoyat qilingan hadisning sahib, hasan yoki zaiflik darajasiga o‘z munosabatini bildirib, hadis roviylari, sanadlar va sanadni qamrab olgan illatlar xususida o‘z fikrini bildirib o‘tgan. “*Sunani Termiziy*” asari, Ahmad Muhammad Shokir tahqiqiga ko‘ra, 46 ta bo‘lim 2496 ta bob, 3956 ta hadisdan iborat.

“Jome’ as-Sunan”ning boshqa kitoblarda uchramaydigan o‘ziga xos xususiyatlari bor bo‘lib ular quyidagilar:

⁸ Abu Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy./ Tarjimon, sharh va izohlar muallifi: Mirzo Kenjabek. – T.: Sharq, 2010. – B. 12.

⁹ Ibn Hajar al-Asqaloniy. Tahziyb at-tahziyb. Dorul fikr, 1984. J. 9. – B. 45; Yusuf ibn Abdurahmon Mizziy. Tahzibul kamol fi asmair rijal. Bayrut: Muassatur risala, 1980. J. 26. – B. 252.

¹⁰ Shamsuddin Zahabiy. Tazkirat al-huffoz. – Bayrut/Liviya. Dor al-kitab al-ilmiyya. 1998. J. 2. – B. 154; Siyaru a’laamin nubala. – Bayrut, Muassasatur risala, 1993. J. 13. – B. 273; Nuriddin Itr. – Al-Imom at-Termiziy val muvozanatu bayna jami’ihi va baynas sahihayn. 1980. – B. 11.

1) Ushbu kitob bir vaqtning o‘zida ham “jome”, ham “sunan” dir. Ulamolar Imom Termiziyning kitobini nomlashda turli fikrlar bildirishgan. “Al-Komil” kitobi sohibi Ibn Asiyr kitobni “Al-Jame’ al-Kabiyr”, Imom Samo’niy, al - Idris, az - Zahabiy, al-Iraqiy, Ibn Hajar al-Asqaloniylar uni “Al-Jome”, Imom ibn Kasr, ibn Atiyya “As-Sunan” deb nomlashgan¹¹. Siyrat, odoblar, tafsir, aqid, fitnalar, qiyomat belgilari, fiqhiy hukmlar va manoqiblar kabi sakkizta mavzuni qamrab olingen hadis to‘plami “jome” bo‘ladi. Shuningdek, bu to‘plam fiqhiy mavzular boblariga ajratilgan holda tartib berilganligidan “sunan” hamdir.

“Sunani Termiziy” hadis to‘plami manbalarda turli nomlar bilan keltirilgan. Jumladan, ulardan quyidagilarni keltirish mumkin:

- A) Al-Jome’. Bu nomni Shihobiddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniy o‘zining “Tahzib at-tahzib” nomli asarida va Ahmad ibn Abdulloh al-Jazariy o‘zining “Xulosot Tahzib tahzib al-kamol” nomli kitobida zikr qilganlar¹².
- B) Al-Musnad as-sahih. Mansur al-Xolidiy bu haqida shunday degan: “Abu Iso dedi: Men bu kitob, ya’ni, “Al-Musnad as-sahih”ni tasnif qilib, uni Hijoz, Iraq va Xuroson ulamolariga taqdim etdim. Ular uni ijobiy qabul qildilar”¹³.
- C) As-Sunan. Kitobning bu nom bilan atalishiga sabab shuki, undagi hadislarning fiqhiy mavzular tartibida tasniflanganlidir. Asarning ushbu nomi boshqalariga nisbatan keng tanilgani va asar tarkibiga mos hisoblanadi.
- D) Al-Jome’ as-sahih. “Sunani Termiziy” asariga nisbatan bu nomni Hoji Xalifa (1017-1067/1609-1657) o‘zining “Kashf az-zunun”nomli asarida va Ismoil Posho Bag‘dodiy (vaf. 1339/1920 y.) “Hadiyat al-orifin” kitobida keltirilganlar¹⁴.
- E) Kitab as-sahih.
- F) Al-Musnad al-Jomry’. Bu nomni Hofiz Abulqosim al-Is’ardiy (vaf. 692/1293 y.) o‘zining “Fazoil al-Kitab al-jomi’ li Abu Iso at-Termiziy” nomli asarida ishlatgan.
- G) Al-Jomi’ al-Kabir. Abulhasan Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ibn ibn Abdulkarim al-Jazariy ash-Shayboniy (555-630/1160-1233) o‘zining “al-Komil fi at-tarix” nomli asarida bunday deydi: “Abu Iso Termiziy imom va hofiz bo‘lgan. Ajoyibasarlar muallifi bo‘lib, kitoblarining eng yaxshisi “al-Jome’ al-kabir”¹⁵. Shuningdek, ushbu nom “Sunani Termiziy”ning zamonaviy nashrlarida ham qo‘llanilgan¹⁶.

¹¹ Muhammad ibn Muso At-Termiziy. Markaz ar-risola li ad-Dirosa. Bayrut: 2020. – B.77.

¹² Shihobiddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloni. Tahzib at-tahzib. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. III. – B. 668.; Ahmad ibn Abdulloh al-Jazariy. Xulosot Tahzib tahzib al-kamol. – Misr: al-Matbaa al-kubro, 1884. – B. 355.

¹³ Shihobiddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloni. Tahzib at-tahzib. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. III. – B. 669.

¹⁴ Mustafa ibn Abdulloh. Kashf az-zunun. – Bayrut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 2004. – J. I. – B. 320.

¹⁵ Abulhasan Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim al-Jazariy ash-Shayboniy. Al-Komil fi at-tarix. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1994. – J. VI. – B. 373.

¹⁶ Abu Iso Termiziy. Sunan. – Bayrut: Dor al-g’arb al-isloviy, 1996. 6 jild.

F) Al-Jomi' al-muxtasar min sunan Rasululloh. Bu nom ham ba'zi manbalarda keltirilgan.

2) "Sunan Termiziy" kitobida "Sahihi Buxoriy" da keltirilmagan hadislar yozilgan.

3) Imom Termiziy (rohimahulloh) o'ziga ma'lum faqih va mujtahidlarning dalillarini toplashga harakat qilganlar. Har bir faqihning dalili alohida bobda keltirilgan. Fiqhda to'rt imom, Sufyon Savriy, Abdulloh ibn Muborak, Ishoq ibn Rohuvayh so'zlarini keltirgan. Abu Hanifa (rohimahulloh) ning ismlarini juda kam o'rinda zikr qilib, dalillarini keltirishda kufa ahli, ahli ray deb zikr qilgan¹⁷.

4) Har bir bobda faqih va mujtahidlarning fiqhiy qarashlari, bobdag'i hadisdan chiqariladigan fiqhiy hukmlar ham aytib ketilgan. Uni o'qigan kishi fiqhga taalluqli "ahkom" hadislar va fiqhiy qarashlarning katta zaxirasini qo'lga kiritadi.

5) Imom at-Termiziy (rohimahulloh) har bir hadisni keltirar ekan, uning sahihlik yoki zaiflik darajasini hassoslik bilan batafsil keltirib, alohida qayd qilib ketganlar.

6) Har bir bobda bir yoki ikkita hadis keltirilgan bo'lib, bu mavzuga oid asosiy hadislarning keltirilganini bildiradi. Biroq "va fi-l-bob" ("bu bobda...") deb turib ushbu mavzuga oid barcha hadislar yana kimlardan rivoyat kilinganiga batafsil ishora qilib ketilgan. Bu bilan keyingi davr muhaddislariga va xadis olimlariga izlanishlar eshigini ochib ketganlar. Shuning uchun Imom at-Termiziy (rohimahulloh)ning ishora qilib ketgan hadislari topilib, taxrij qilingan bir qancha mustaqil asarlar vujudga kelgan. Imom Hofiz Abu Aliy Hasan ibn Aliy ibn Nasr ibn Mansur at-Tusiy (hij 312-vafot etgan), hamda Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Yanjuvayh Yazdiy (hij 428- vafot etgan) Imom Termiziyning "Sunan Termiziy" kitobiga Mustaxrajot kitoblarini yozgan.¹⁸

7) Agar birorta hadis juda uzun bo'lsa, shuningdek, birorta qissa yoki hodisa bilan bog'liq bo'lsa, uning bob mavzusiga taalluqli zaruriy qismigina keltirilib, hadis qisqacha keltirilgan. Uning uzun yoki birorta qissaga oid ekaniga ishora ham qilib ketilgan. Mazkur zaruriy qismning o'zidan hadisning to'liq shakli topish oson kechadi.

8) Agar birorta hadisning "illat"i yoki "iztirob"i bo'lsa, Imom at-Termiziy (rohimahulloh) uni batafsil sharh qilib, tushuntirib, ochiqlab ketganlar¹⁹.

9) Imom at-Termiziy (rohimahulloh) roviylarning tanilgan nomlari, ishtibohli ismlari to'g'risida ham ma'lumot bergenlar. Jumladan, roviyning mashhur nomini keltirgan bo'lsalar, uning kunyasini ham aytib ketganlar, agar kunysi mashhur bo'lsa, uni keltirib, so'ng chalkashlik tug'ilmasligi uchun uning haqiqiy nomini bildirib o'tgan. Ayrim o'rinlarda esa roviyning o'z ustozidan shaxsan hadis eshitgan yoki

¹⁷ Doktor Tohir Azhariy. Al-madhal ila Jome' imom at-Termiziy. Quvayt: Maktaba Shuun al-Fanniyya, 2007. – B. 51

¹⁸ Muhammad ibn Muso At-Termiziy. Markaz ar-risola li ad-Dirosa. Bayrut: 2020. – B.71.

¹⁹ O'zbekiston musulmonlar idorasi imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Sunani Termiziy sharhi. Toshkent: Irfonnashr, 2021. – 1-jild. B 329.

eshitmaganligi, ya’ni simosi sobitligi masalasiga ham to‘xtalgan. Bu imom at-Termiziyning rijol ilmida mohir ekanini ko‘rsatib beradi. Mashhur roviylarning ism va kunyalatini keltirishda yorqin misol:

- Xallod al-Hazzo: U Xolid ibn Mehron; Abu al-Manazil deb kunyalangan.
- Molik ibn al-Huvayris al-Laysiy: Abu Sulaymon deb kunyalangan.

Mashhur roviylarning kunyasi bilan nomlangan bunga misol:

– Abu al-Maliyh: u kishi otasidan rivoyat qilgan, Usomani o‘g‘li uning ismi Omir. Zayd ibn Usoma ibni Umayr al-Huzaliy deyiladi.

– Az-Zuhriy: Ismi Muhammad ibn Muslim ibn Ubaydulloh ibn Shihob az-Zuhriy, kunyasi Abu Bakr²⁰.

10) Imom at-Termiziy (rohimahulloh) roviylarning ism va kunyasidan tashqari, qaysi davlat yoki shahardan, sahaba yoki tobein, zaif yoki siqa ekani haqida qisqaacha bayon qilib o‘tgan. Bunga misol:

- Abu Xolid: U Abu Xolid al-Volibiy ismi Hurmuz bo‘lib kufalikdir.
- A’loning bobosi Ya’qub: U katta tobenlardan, Umar ibn Xattob bilan ko‘rishgan, undan hadis ham rivoyat qilgan.
- Ismoil ibn Muslim al-Makkiiy: Hifzi tarafidan hadisda zaif sanaladi.

10) “Jome’ as-Sunan”ning tartibi juda oson. Har bir hadisning mazmuni va uning matnidan foydalanib boblarga sarlavha tanlangan. Shuning uchun sarlavhalar orqali hadisni topish yoki uning umumiy mazmunidan xabardor bo‘lish oson. Bunga misol:

“Ikki kishi bilan birga namoz o‘qigan kishi borasida kelgan hadis haqida bob” shu bobga Samura ibn Jundab “roziyalloh anhu” ni rivoyatini keltiradi.

Rosululloh (sallallohu alayhi vasallam): “Agar uch kishi bo‘lsak birimiz oldinga o‘tishimizni buyurdilar”- dedilar. Bobning sarlavhasidan agar uch kishi namoz o‘qimoqchi bo‘lsa ulardan bir kishi imomlikka o‘tish kerakligi tushuniladi²¹.

11) “Jome’ as-Sunan” ning muhim xususiyatlaridan biri shuki, unda keltirilgan barcha hadislar qaysidir faqih tomonidan qabul qilingan va amalga kiritilgan. Buni Imom at-Termiziy (rohimahulloh)ning o‘zi ham kitob ilovasi bo‘lmish “al-Ilal as-sag‘ir” asarida e’tirof etgan. Bu yerda Imom at-Termiziy (rohimahulloh) ikkita hadisni istisno qilgan:

Birinchi hadis “Sunan at-Termiziy” da 187-raqam bilan keltirilgan bo‘lib, hech qanday zaruratsiz ham ikki farz namozni jamlab o‘qish mumkinligi haqidadir. Mazkur hadisni keltirganidan keyin Imom at-Termiziy (rohimahulloh) uning beuzrlik holatida amal qilishi mumkin emasligini aytib o‘tgan va unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilish aslo joiz emasligini qayd etgan. Lekin hanafiy olimlari “Sunan Termiziy” da kelgan

²⁰ Doktor Tohir Azhariy. Al-madhal ila Jome’ imom at-Termiziy. Quvayt: Maktaba Shuun al-Fanniyya, 2007. – B. 69

²¹ Doktor Tohir Azhariy. Al-madhal ila Jome’ imom at-Termiziy. Quvayt: Maktaba Shuun al-Fanniyya, 2007. – B. 99

yuqoridagi hadisga “jam’i suvariy” (surasan jamlash) ko‘rinishida amal qilish mumkinligini yoritib bergen. Ya’ni bir namozni oxirgi vaqtida o‘qib, keyingi namozni avvalgi vaqtida ado qilish “jam’i suvariy” deb aytildi.

Ikkinchchi hadis esa “Sunan at-Termiziy” da 1444-raqam bilan keltirilgan bo‘lib, aroqxo‘r to‘rtinchi marta ham aroq ichib qo‘lga tushsa, uni o‘ldirishga bo‘lgan ko‘rsatmadir. Mazkur hadisni keltirganidan keyin Imom at-Termiziy uni “mansux” hukmi bekor qilingan deb topgan²².

12) “Jome’ as-Sunan” ni garchi “Sunani Nasoiy” va “Sunani Abu Dovud” dan keyingi o‘ringa qo‘yilsada, lekin “Kashf az-zunun” da Hoji Xalifa (rohimahulloh) uni “Sahihayn” dan keyingi o‘ringa qo‘yadi. Ya’ni Imom Buxoriy (rohimahulloh) va Imom Muslim (rohimahulloh) to‘plamlaridan keyingi uchinchi o‘ringa ko‘yilgan. Hofiz az-Zahabiy (rohimahulloh) ham “Jome’ as-Sunan”ni “Sahihayn” dan keyingi o‘ringa qo‘ygan²³.

Ibn Hajar al-Asqaloniy (rohimahulloh) ham “Taqrib at- Tahzib” asarida oltita sahih hadislari tuplami “Sihohi sitta” ga ramziy belgilar ko‘yar ekan, “Jome’ as-Sunan”ni “Sunani Abu Dovud” va “Sunani Nasoiy” o‘rtasiga to‘rtinchi o‘ringa qo‘ygan.

“Jome’ as-Sunan”ni pastki o‘ringa tushirib qo‘ygan sabab unda Maslub yoki Kalbiy singari o‘ta zaif roviylardan ham hadis rivoyat qilingani hisoblanadi. Biroq Imom at-Termiziy (rohimahulloh) rivoyatlarni keltirar ekan, har bir rivoyatning darajasini belgilab, zaif roviylar to‘g‘risida albatta ma’lumot berib ketgan. Shuning uchun ham u zotning zaif rivoyatlari aslo xatarli emas! Bu nuqtai nazardan olib qaraganda, “Jome’ as-Sunan” hadis to‘plamlari orasida eng xatarsiz kitob hisoblanadi. Shuningdek, Abu Bakr al-Hozimiyy (rohimahulloh) “Shurut al-aimma al-xamsa” asarida Imom at-Termiziy (rohimahulloh)ning hadislarga qo‘ygan shartlari Imom Abu Dovud (rohimahulloh) ning shartlaridan ko‘ra qattiqroq ekanini tasdiqlagan²⁴.

Imom at-Termiziy (rohimahulloh) zaif hadislardan ogohlantirib ketar ekanlar, bu qaydlar u zotning nazdida bu zaif hadisning “shavohid” va “mutobaat”lari borligini anglatadi. Ya’ni ushbu zaif hadisni quvvatlaydigan boshqa rivoyatlar mavjudligini bildiradi.

13) Imom at-Termiziy (rohimahulloh) “Jome’ as-Sunan” asarida zaif, to‘qima hadis keltirmagan. Ibn al-Javziy (rohimahulloh) o‘zining “Mavzuoti kubro” asarida Imom at-Termiziy (rohimahulloh) rivoyat kilgan 23 ta hadisni mavzu’ deb yuborgan. Lekin Ibn al-Javziy (rohimahulloh)ning mavzu’ hadislarni belgilashda o‘ta qattiq “mutashaddid” ekani ma’lum. U zot hatto “Sahihi Buxoriy” va “Sahihi Muslim”da

²² O‘zbekiston musulmonlar idorasi imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Sunani Termiziy sharhi. Toshkent: Irfonnashr, 2021. – 1-jild. B 330.

²³ O‘zbekiston musulmonlar idorasi imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Sunani Termiziy sharhi. Toshkent: Irfonnashr, 2021. – 1-jild. B 330.

²⁴ Abu Bakr Muhammad ibn Musa Hozimiyy. Shurut a‘imma al-Xomsa. Bayrut: Maktaba Islomiyya, 2004. – B.125.

keltirilgan hadislarni ham mavzu' deb yuborganlari birma-bir aniqlanib, tanqid qilingan. Shuning uchun ham imom at-Termiziy (rohimahulloh)ning "Jome' as-Sunan" asarida keltirilgan hadislar sinchiklab o'rganib chiqilganda unda birorta mavzu', to'qima va soxta hadis yo'qligi aniqlangan.

Jaloliddin as-Suyutiy (rohimahulloh) yuqoridagi 23 ta hadisni birma-bir o'rganib chiqib, "al-Qavl al-hasan fiz-zabbi a'n as-Sunan" deb nomlangan risolani bitgan. Unda ibn al-Javziy (rohimahulloh) mavzu' deb qaror qilgan fikrlari tanqid qilinib, o'sha hadislarning sobit ekanligi, ularning barchasi "Sihohi sitta" to'plamlarida uchrashi isbotlangan.

14) Imom at-Termiziy ba'zi hadis istelohlarini ishlatalishda boshqa imomlardan ajralib turadi. Misol uchun

Hasan – Imom at-Termiziy bu iste'lohga shunday ta'rif beradi: "Bu kitobda "Hadiysun Hasanun" iborasini keltirsak u hadisning isnodi hasan bo'lib, sanadida yolg'on bilan tuhmatlangan kishi bo'lmaydi, hadis shoz ham bo'lmaydi va yana boshqa ko'rinishda shunga o'xshash hadis kelgan bo'ladi²⁵. Bu ta'rif boshqalarining ta'rifidan hadisni boshqa turuqi bor bo'lishi shart qilinishi bilan farqlanadi.

G'arib – Imom at-Termiziy ilal kitobida g'arib hadisga shunday ta'rif beradi: "Biz bu kitobda g'arib hadis deb aytsak ahli hadis bir nechta ko'rinishdagi hadisga g'arib deb aytdi: gohida, hadis bitta yo'lidan rivoyat qilingan bo'lsa g'arib bo'ladi, gohida hadisdagi ziyodqlik sabab g'arib bo'ladi, sanadning holatidan kelib hadis g'arib deb aytildi"²⁶.

Hasan G'arib – Bu iste'loh imom at-Termiziy nazmida "hasan lizotihu" muqobilida turadi.

Sahih G'arib – Bu hadis sahih bo'lib, unda qandaydir g'arobatli (noaniqlik) bor bu esa sahih bo'lishga to'siq bo'lmaydi.

Hasan Sahih G'arib – Bu iste'loh imom at-Termiziy naznida hadisning turuq (rivoyat yo'l) lari bir nechta bo'lib, roviylari tuhmatlanmagan, hadis shoz bo'limgan bo'lsa, shu turuqlar ba'zisi sahih, ba'zisi hasan bo'lsa bu hadis "hasan sahih g'arib" deb aytgan²⁷.

14) O'quv dargohlarida "Sihohi sitta" dars qilib o'tilar ekan, aynan Imom at-Termiziy (rohimahulloh) ning "Jome' as-Sunan" asarining talabalarga juda katta manfaati borligi ma'lum bo'lgan. Hindiston va Pokiston ulamolari "Sihohi sitta" darslarini "Jome' as-Sunan"dan boshlashlarining sababi ham shunda. Unda hadis ilmini fiqh bilan uyg'unlashtirilib bayon qilib beriladi. Buning esa talabalarning hadislarni to'g'ri tushunishlarida foydasi katta. "Jome' as-Sunan" kitobining boshqa hadis to'plamlaridan ortiqcha xususiyatlari va afzal jihatlari borligi shak-shubhasizdir.

²⁵ Abu Ilyo at-Termiziy. "Ilal as-Sog'ir". Bayrut: dar ixyo at-turos al-arabiy, 2012. – B. 378.

²⁶ O'sha manbaa. B. 389.

²⁷ O'sha manbaa. B. 610.